



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:5 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).

№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA ATMOSFERAGA CHIQARILADIGAN CO₂ EMISSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK <i>Xoshimov P.Z, Egamnazarova G.Sh</i>	4
2.	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIIY MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL <i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna, Jumaniyozov Farxodjon Rajapboy o'g'li</i>	8
3	TOSHKENT MINTAQASIGA XOS AGROTURIZM RESURSLARI HAMDA INFRATUZILMA HOLATI VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI <i>Shodiyeva Nafosat Hamza qizi</i>	14
4	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: ASOSIY XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA IMKONIYATLARI <i>Shadmanov Zuhreddin Zokirxodjayevich</i>	18
5	TIJORAT BANKLARDA ISHLAB CHIQISHDA FOYIZ XAVFLARINI BOSHQARISHINI MUSTAHKAMLASH <i>Seitnazarov Daniyar Baxadirovich</i>	22
6	УЛУЧШЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВНЕДРЕНИЯ ВОДОЭКОНОМИЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПОГИСТАН <i>Сейтназаров Бахадир Муратбаевич</i>	26
7	KORXONALAR MOLIYAVIY FAOLIYATI OPERATSIYALARINI TASNIFLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN KONSEPTUAL MODEL: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI <i>Umarova Shahnoza</i>	30



KORXONALAR MOLIVAVIY FAOLIYATI OPERATSIYALARINI TASNIFLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN KONSEPTUAL MODELI: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI

Umarova Shahnoza

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Email: shahnozaumarova09051995@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0624-2380

Annotatsiya: Maqolada korxonalar moliyaviy faoliyatiga kiruvchi hisob ob'ektlarini tasniflash masalalari tadqiq etilgan. Moliyaviy faoliyat operatsiyalarini moliyalashtirish manbai, majburiyat muddati, valyuta belgisi, risk darajasi va moliyaviy natijaga ta'siri bo'yicha tasniflashning takomillashtirilgan konseptual modeli ishlab chiqilgan. Ularni tan olish, baholash, hisobda aks ettirish va moliyaviy hisobotlarda ochib berishning izchil metodologiyasi milliy talablar va xalqaro standartlar asosida asoslangan.

Kalit so'zlar: moliyaviy faoliyat, moliyaviy operatsiyalar, tasniflash, moliyalashtirish, kapital, majburiyatlar, risk, moliyaviy natija, konseptual model.

Abstract: The article examines the classification of accounting objects related to the financial activities of enterprises. An improved conceptual model is developed for classifying financial transactions by source of financing, liability maturity, currency, risk level and impact on financial results. A consistent methodology for their recognition, measurement, accounting and disclosure in financial statements is substantiated based on national requirements and international standards.

Keywords: financial activity, financial transactions, classification, financing, capital, liabilities, risk, financial results, conceptual model.

Абстрактный: В статье исследованы вопросы классификации объектов учета, относящихся к финансовой деятельности предприятий. Разработана усовершенствованная концептуальная модель классификации финансовых операций по источнику финансирования, сроку обязательства, валюте, уровню риска и влиянию на финансовый результат. Обоснована последовательность их признания, оценки, отражения в учете и раскрытия в финансовой отчетности с учетом национальных требований и международных стандартов.

Ключевые слова: финансовая деятельность, финансовые операции, классификация, финансирование, капитал, обязательства, риск, финансовый результат, концептуальная модель.

Kirish (Введение/Introduction).

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar korxonalar faoliyatini moliyalashtirishning zamonaviy va diversifikatsiyalashgan mexanizmlarini shakllantirish, investitsiyalarni keng jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilmoqda. Ayniqsa, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, investitsion faollikni kuchaytirish va xalqaro moliya bozorlariga chiqish korxonalar moliyaviy faoliyatining mazmuni hamda unga oid hisob axborotiga qo'yiladigan talablarni yanada kuchaytirmoqda.

2025-yil 27-yanvarda "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili davlat dasturi loyihasi" yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda mamlakat iqtisodiyotini ekologik toza va resurs tejamkor rivojlanish modeliga o'tkazish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Mazkur jarayon korxonalarning nafaqat ishlab chiqarish va investitsion, balki moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmlarini ham takomillashtirishni talab etadi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda investitsiya va eksport faoliyatining jadal rivojlanishi korxonalarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini oshirmoqda. 2024-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 6,5 foizga o'sib, 115 milliard dollarga yetgani, xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb 35 milliard dollarni tashkil etgani va eksport 27 milliard dollarga yetgani qayd etilgan.

Bunday sharoitda korxonalarning moliyaviy barqarorligi nafaqat mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, balki zarur hollarda tashqi moliyalashtirish manbalarini maqbul shartlarda jalb qilish imkoniyatiga ham bog'liq. Shu nuqtai nazardan, korxonalarning bank kreditlari, obligatsiyalar, aksiyalar emissiyasi, ijara majburiyatlari,

investorlar mablag'lari va boshqa moliyalashtirish manbalarini bilan bog'liq operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aniq tasniflash alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Moliyaviy faoliyatning iqtisodiy mazmuni va korxona moliyaviy holatiga ta'siri masalalari bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

L.V. Chxutiashvili moliyaviy faoliyatni korxonaning moliyaviy rejalashtirish va budjetlashtirish, moliyaviy tahlil hamda moliyaviy munosabatlarni boshqarish bilan bog'liq faoliyati sifatida ko'rib chiqadi. Muallif moliyaviy faoliyatni korxonaning iqtisodiy barqarorligi va samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholaydi [5]. Mazkur yondashuv moliyaviy faoliyatni faqat alohida moliyaviy operatsiyalar yig'indisi sifatida emas, balki korxonaning moliyaviy boshqaruv tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

V.V. Kolmakov va S.Yu. Korovin moliyaviy holatni tahlil qilish yondashuvlari va metodikalarini takomillashtirish masalalarini tadqiq etib, korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda turli ko'rsatkichlarni tizimli tahlil qilish zarurligini asoslaydi [6]. Ularning yondashuvi mazkur tadqiqot uchun moliyaviy faoliyat operatsiyalarini alohida mezonlar bo'yicha guruhlash zarurligini asoslashda metodologik ahamiyatga ega.

E.E. Jernov va S.V. Idiyattullina tomonidan moliyaviy faoliyatning inqiroz sharoitidagi xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, unda moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish samaradorligi hamda



1.3-rasm. Korxonalar moliyaviy faoliyati operatsiyalarini tasniflash, tan olish, baholash va hisobga olishning takomillashtirilgan konseptual modeli.

korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash yo'llariga e'tibor qaratilgan [7].

Stephen Sylvester moliyalashtirish faoliyatini korxonaga kreditorlar va mulkdorlardan mablag'larning kirib kelishi va ularga mablag'larning qaytarilishi bilan bog'liq pul oqimlari orqali izohlaydi. Bunday yondashuv moliyalashtirish faoliyatining korxonaning kapital va qarz majburiyatlari tarkibiga ta'sirini ko'rsatadi [8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda moliyaviy faoliyatning iqtisodiy mohiyati, moliyaviy barqarorlik, moliyalashtirish manbalari va pul oqimlari alohida-alohida o'rganilgan. Biroq moliyaviy faoliyatga oid hisob ob'ektlarini moliyalashtirish manbai, majburiyat muddati, valyuta belgisi, risk darajasi va moliyaviy natijaga ta'siri kabi o'zaro bog'liq mezonlar asosida yagona tizimga birlashtirish masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur holat tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqotning metodologik asosini buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning milliy hamda xalqaro tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, tasniflash, induksiya va deduksiya, mantiqiy tahlil hamda ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobiga oid normativ-huquqiy hujjatlar,

BHMS talablari, IAS 7, IFRS 18, ilmiy maqolalar va moliyaviy faoliyatga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tashkil etdi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Korxonaning moliyaviy faoliyati, avvalo, uning moliyaviy resurslarini shakllantirish, qayta taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi. Bunda korxona o'z mablag'lari yoki qarz mablag'laridan foydalanishi mumkin. O'z mablag'lari tarkibiga ustav kapitali, qo'shimcha kapital, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foyda kabi manbalar kirsa, qarz mablag'lariga bank kreditlari, obligatsiyalar, boshqa qarz majburiyatlari va ijara majburiyatlari kiradi. Moliyaviy faoliyatning mazmunini faqat mazkur manbalarni jalb qilish bilan chegaralash ham to'liq metodologik yondashuv emas. Chunki moliyalashtirish jarayonida korxonada tegishli majburiyatlar, foiz xarajatlari, diskont yoki mukofotlar, valyuta kurslari farqlari, dividendlar va boshqa moliyaviy natijalar yuzaga kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib, biz moliyaviy faoliyat operatsiyalarini ko'p mezonli tasniflash modelini taklif qilamiz. (1-rasmga qarang)

Mazkur takomillashtirilgan konseptual modelni ishlab chiqish zarurati korxonalar moliyaviy faoliyati operatsiyalarini milliy amaliyotda yagona tizim asosida tasniflash, tan olish, baholash va hisobga olish bo'yicha ilmiy-metodologik yondashuvlarning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Amalda moliyaviy faoliyatga oid

operatsiyalar ayrim holatlarda operatsion yoki investitsion faoliyat tarkibida aks ettirilishi natijasida moliyaviy natijalarning haqqoniyligi, likvidlik ko'rsatkichlari va kapital tuzilmasining real holati to'liq ochib berilmay qolmoqda. Shu bois, moliyaviy faoliyatni moliyalashtirish manbai, majburiyat muddati, valyuta belgisi, risk darajasi va moliyaviy natijaga ta'siri kabi mezonlar asosida tizimli tasniflash korxonalarda shaffof va taqqoslanuvchan hisob axborotini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Modelning ilmiy asosi moliyaviy faoliyat operatsiyalarini tan olish, baholash va hisobga olishning bosqichma-bosqich metodologiyasini shakllantirish orqali namoyon bo'ladi. Bunda operatsiyalarni dastlabki va keyingi baholash, analitik va sintetik hisobda aks ettirish, moliyaviy hisobotlarda ochib berish hamda risk darajasiga qarab boshqaruv qarorlari qabul qilish mexanizmlari o'zaro integrasiyalashtirilgan. Natijada mazkur model korxonalarda moliyaviy resurslar harakatini samarali boshqarish, tashqi va ichki moliyalashtirish manbalarini to'g'ri baholash, risklarni kamaytirish va moliyaviy natijalarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, moliyaviy faoliyatni ilmiy asosda tasniflash nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham korxonalarda moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirish, investorlar uchun axborotning ishonchligini ta'minlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Demak, moliyaviy faoliyatni tasniflash - bu korxonaning moliyaviy tizimini chuqur anglash va uni samarali boshqarishning muhim vositasidir. Moliyaviy faoliyatni tasniflashning asosiy maqsadi — korxona faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy operatsiyalarni ularning iqtisodiy mazmuni, manbasi, muddati, risk darajasi va hisobda aks ettirish xususiyatlariga ko'ra tizimlashtirishdan iborat. Ushbu tasniflash orqali korxonaning moliyaviy strategiyasi, kapital jalb qilish mexanizmlari va risklarni boshqarish darajasi chuqur tahlil qilinadi. Xususan, 18-son MHXS va 7-son BHXS standartlari moliyaviy faoliyatni tasniflashning metodologik asosini belgilab beradi hamda moliyaviy natijalarni operatsion, investitsion va moliyalashtirish faoliyatlari kesimida ajratishni talab etadi.

Moliyaviy faoliyat operatsiyalarini tasniflashda milliy buxgalteriya hisobi tizimi bilan xalqaro standartlar o'rtasidagi uyg'unlik alohida ahamiyatga ega. IAS 7 talablariga ko'ra, pul oqimlari operatsion, investitsion va moliyalashtirish faoliyatlari bo'yicha tasniflanadi. Moliyalashtirish faoliyati korxonaning kiritilgan kapitali va qarz mablag'larining hajmi hamda tarkibidagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

Mazkur yondashuv taklif etilayotgan modelning 4-blokida — moliyaviy faoliyatni operatsion va investitsion faoliyatdan ajratishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq tadqiqot nuqtai nazaridan faqat IAS 7dagi pul oqimlari tasnifi yetarli emas. Chunki korxonaning moliyaviy faoliyatiga oid ayrim operatsiyalar pul oqimini bevosita yuzaga keltirmasligi mumkin. Masalan, ayrim moliyaviy majburiyatlarining qayta baholanishi yoki valyuta kursining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan summalar korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir qilsa-da, ularni faqat pul oqimi nuqtai nazaridan baholash mumkin emas. Shu sababli taklif etilayotgan modelda pul oqimi bilan bir qatorda moliyaviy majburiyat, kapital, risk va moliyaviy natijaga ta'sir mezonlari ham birlashtirilgan.

IFRS 18 esa moliyaviy natijalarni taqdim etish va ochib berish nuqtai nazaridan mazkur yondashuvning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Standart foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotda operatsion foyda hamda moliyalashtirish va daromad solig'idan oldingi foyda kabi belgilangan oraliq ko'rsatkichlarni joriy etadi. Shuningdek, IFRS 18 doirasida daromad va xarajatlarni operatsion, investitsion va moliyalashtirish kategoriyalariga ajratishning yangi tizimi shakllantirilgan. Demak, taklif qilinayotgan konseptual model milliy va xalqaro yondashuvlarni qarama-qarshi qo'ymaydi. Aksincha, ularning o'zaro uyg'unlashuv nuqtalarini aniqlashga va korxona darajasida yagona hisob metodologiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan modelning yana bir muhim jihati — moliyaviy faoliyat operatsiyalarini faqat tasniflash bilan cheklanmasdan, ularni hisobga olishning keyingi bosqichlari bilan bog'lashidir. Birinchi bosqich — tan olish. Ushbu bosqichda operatsiyaning moliyaviy faoliyatga tegishligi, tegishli aktiv, majburiyat yoki kapital obyekti yuzaga kelganligi aniqlanadi. Ikkinchi bosqich — baholash. Operatsiyaning dastlabki

qiymati, keyingi qiymati, foiz stavkasi, valyuta kursi, diskont va boshqa tegishli ko'rsatkichlar aniqlanadi. Uchinchi bosqich — hisobda aks ettirish. Operatsiya tegishli sintetik va analitik hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Bunda operatsiyaning iqtisodiy mazmuni bilan hisob yozuvlari o'rtasidagi muvofiqlik ta'minlanishi lozim. To'rtinchi bosqich — hisobotda ochib berish. Moliyaviy faoliyatga oid ma'lumotlar moliyaviy holat, moliyaviy natijalar va pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarda hamda tegishli izohlarda foydalanuvchilar uchun tushunarli shaklda ochib beriladi. IAS 7 moliyalashtirish faoliyatidan kelib chiqadigan majburiyatlardagi o'zgarishlarni alohida ochib berishga ham e'tibor qaratadi. Mazkur talab foydalanuvchilarga moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot va pul oqimlari to'g'risidagi hisobotdagi ma'lumotlarni o'zaro bog'lash imkonini beradi. Shunday qilib, taklif etilayotgan modelning 6-bloki — “tan olish → baholash → hisobda aks ettirish → hisobotda ochib berish” ketma-ketligi — moliyaviy faoliyat operatsiyalarining hisob jarayonini uzluksiz metodologik tizimga birlashtiradi.

Taklif etilgan konseptual modelning amaliy ahamiyati korxonada moliyaviy faoliyatga oid hisob axborotini shakllantirishning bir necha yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Birinchidan, moliyaviy faoliyat operatsiyalarining to'g'ri tasniflanishi ta'minlanadi. Bu operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat o'rtasidagi chegaralarni aniq belgilashga yordam beradi. Ikkinchidan, korxonaning kapital tuzilmasi to'g'risidagi axborot yaxshilanadi. O'z kapitali va qarz kapitalining tarkibi alohida tahlil qilinishi natijasida moliyaviy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash imkoniyati kengayadi. Uchinchidan, qarz majburiyatlarining muddati bo'yicha guruhlanishi korxonaning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy yuklamasini baholash imkonini beradi. To'rtinchidan, valyuta mezonining kiritilishi xorijiy valyutadagi majburiyatlar bo'yicha valyuta risklarini aniqlashga xizmat qiladi. Beshinchidan, risk darajasining alohida mezon sifatida kiritilishi moliyaviy faoliyatning boshqaruv jihatini kuchaytiradi. Hisob axboroti faqat sodir bo'lgan operatsiyani qayd etuvchi vosita emas, balki kelgusidagi moliyaviy qarorlarni qabul qilish uchun analitik baza vazifasini ham bajaradi. Oltinchidan, moliyaviy natijaga ta'sir mezonlari daromad, xarajat, foyda, zarar va kapitaldagi o'zgarishlarning moliyaviy faoliyat bilan bog'liqligini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Yettinchidan, model moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun ishonchli, taqqoslanuvchan va shaffof axborot shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan modelning asosiy amaliy natijasini quyidagi zanjir orqali ifodalash mumkin: Tasniflash → tan olish → baholash → hisobda aks ettirish → hisobotda ochib berish → tahlil → boshqaruv qarori.

Mazkur zanjir modelning alohida tasniflash jadvali emas, balki moliyaviy faoliyatni boshqarish va hisobga olishning yaxlit konseptual mexanizmi ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonalar moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish faqat moliyaviy resurslarni jalb qilish yoki ulardan foydalanish bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayonning muhim tarkibiy qismi moliyaviy faoliyatga oid operatsiyalarni iqtisodiy mazmuniga mos ravishda tasniflash, to'g'ri tan olish, baholash, buxgalteriya hisobida aks ettirish va moliyaviy hisobotlarda ochib berishdan iborat.

Taklif etilgan konseptual modelning asosiy afzalligi shundaki, u moliyaviy faoliyatni alohida operatsiyalar yig'indisi sifatida emas, balki milliy va xalqaro yondashuvlar, tasniflash mezonlari hamda hisobga olishning metodologik bosqichlarini o'zaro bog'lovchi yaxlit tizim sifatida ifodalaydi.

Shu asosda korxonalarda moliyaviy faoliyatga oid hisob siyosatini ishlab chiqishda taklif etilgan konseptual modeldan foydalanish, moliyaviy faoliyat operatsiyalarini beshta asosiy mezon bo'yicha analitik hisobotda guruhlash hamda ushbu ma'lumotlarni moliyaviy hisobotlarda tegishli darajada ochib berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, taklif etilgan model korxonalarning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq hisob axborotini shakllantirishni tizimlashtirish, milliy buxgalteriya hisobi amaliyotini xalqaro standartlar talablari bilan uyg'unlashtirish va moliyaviy boshqaruvning axborot bazasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili davlat dasturi loyihasi" yuzasidan yig'ilish. 27 yanvar 2025-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Investitsiya va eksport bo'yicha asosiy vazifalar belgilandi". 16 yanvar 2025-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Faol tadbirkorlar bilan videoselektor yig'ilishi. 20 dekabr 2024-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (9-son BHMS) "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda 3592-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.
5. Чухтиашвили Л.В. Основы финансовой деятельности на предприятиях в современных рыночных условиях // Международный бухгалтерский учет. – 2010. – №8. – С. 29–40.
6. Колмаков В.В., Коровин С.Ю. Совершенствование подходов и методик анализа финансового состояния предприятия // Вестник НИИЭИ. – 2015. – №5 (48). – С. 67–73.
7. Жернов Е.Е., Идиятуллина С.В. Особенности финансовой деятельности предприятия в условиях кризиса // VII Всероссийская научно-практическая конференция с международным участием. – Россия, 2015.
8. Sylvester S. What Are Financing Activities? LegalZoom Books. 2023/2024.
9. IFRS Foundation. IAS 7 Statement of Cash Flows. IFRS Accounting Standards.
10. IFRS Foundation. IFRS 18 Presentation and Disclosure in Financial Statements. IFRS Accounting Standards.
11. IFRS Foundation. IFRS 18: Key terms and classification of income and expenses.